
SO'RANG JAVOB BERAMIZ!



SAVOL:

Ayrim sabablarga ko'ra turmushimiz buzildi. Olti oydan beri ota-onamning uyidaman. Xo'jayinim bilan qonuniy ajrashish va otalikdan mahrum qilish uchun sudga ariza bermoqchi edim. Lekin xo'jayinim chet elga chiqib ketibdi. Ariza bersak sud ishni ko'raveradimi?

A.Adilova.

JAVOB:

Fuqarolik protsessual kodeksi 280-modda. Sirtidan ish yuritish asoslari:

Sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmagan, kelmaganligining uzrli sabablari borligi haqida xabar bermagan va ishni uning ishtirokisiz ko'rish to'g'risida so'ramagan taqdirda, agar da'vogar bunga e'tiroz bildirmasa, ish sirtidan ish yuritish tartibida ko'rilishi mumkin. Ishni bunday tartibda ko'rish haqida sud ajrim chiqaradi. Javobgar tegishli tarzda xabardor qilinganligi haqida ishda ma'lumot bo'lishi kerak.

Shu asosda tegishli tartibda sud javobgarni xabardor qilib ishni ko'radi.

Ushbu savolga Qo'shtepa tumani Adliya bo'limi boshlig'i A.Xomidov javob berdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-11-18 13:50:39